



MULKKA QARSHI JINOYATLARNING PROFILAKTIKASIGA OID XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Arziqulov Dilshodjon Murodjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan 3-
o'quv kursi 315-guruh kursanti

G'aniyev Farrux Taxirjanovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati kafedrasida katta o'qituvchisi Toshkent,
100197, O'zbekiston, e-mail: fargan77@bk.ru

orcid.org/0009-0005-2423-050X

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14603999>

ARTICLE INFO

Received: 2nd January 2025

Accepted: 4th January 2025

Published: 6th January 2025

KEYWORDS

CCTV tizimlari, strategiya, rehabilitatsiya, monitoring tizimlari, videokuzatuv, raqamli platforma, jamoat politsiyasi, integratsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqola O'zbekistonda mulkka qarshi jinoyatlarni oldini olish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada, Buyuk Britaniya, AQSh, Shvetsiya va Yaponiyaning profilaktik politsiya faoliyati, ijtimoiy xizmatlar, CCTV tizimlari va elektron texnologiyalardan foydalanish kabi usullari ko'rib chiqiladi. Tajribalar O'zbekistonda qanday qo'llanilishi mumkinligi va jinoyatlarni kamaytirish uchun tavsiyalar keltiriladi. Maqolada jamiyatda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan aniq strategiyalar taklif etiladi.

Mulk huquqi turli huquq sohalari–fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, ma'muriy huquq, soliq huquqi va boshqa huquq sohalari bilan himoya qilinadi hamda mazkur huquq sohalari o'z predmeti doirasida mulki himoya etilishini ta'minlaydi. Ular ichida shubhasiz Konstitutsiyaviy normalar markaziy o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasiga muvofiq Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, Iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanadi. Xususi mulk daxlsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas. Demak, davlat organlariga jismoniy va yuridik shaxslarning ajralmas huquqi sifatida mulk huquqlarini himoya qilish yuklangan.

O'zbekistonda mulkka qarshi jinoyatlarni oldini olish bo'yicha xorijiy tajribalarni qo'llash maqsadga muvofiqligi:

O'zbekistonda mulkka qarshi jinoyatlarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi davlatning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bundan kelib chiqib, xorijiy davlatlar tajribalariga e'tibor qaratish juda muhim. Buyuk Britaniya, AQSh, Yaponiya va Shvetsiya kabi rivojlangan mamlakatlarda mulkka qarshi jinoyatlarni oldini olishdagi samarali usullar O'zbekistonda ham qo'llanilishi mumkin. O'zbekistonda profilaktik patrullar va jamoat bilan hamkorlikni kuchaytirish, mahallalarda profilaktika inspektorlarining ishlashini

aktivlashtirish lozim. Bu jinoyatlarni kamaytirish va huquqbuzarliklardan saqlanishga yordam beradi.

Bundan tashqari quyidagi xorijiy tajribalarni ham keltirib o'tishimiz mumkin:

Buyuk Britaniyada CCTV kameralarining keng miqdorda o'rnatilishi jinoyatlarni kamaytirishda samarali bo'lgan. "Aqli" monitoring tizimlari yordamida jinoyatlar sodir bo'lgan vaqtincha yo'llanmalarda va ko'chalarda tezda amalga oshiriladigan choralar ko'rildi. Mamlakatimizda CCTV tizimlari va aqli monitoringni kengaytirish, jinoyatlarni tez aniqlash va ularni oldini olish uchun eng to'g'ri yo'ldir. Maxsus kameralar bilan jabdlangan shaharlar va aholi punktida videokuzatuvlar amalga oshirilishi kerak.

Shvetsiya va Shimoliy Yevropa mamlakatlarida jinoyatchilikning oldini olish uchun ijtimoiy xizmatlar va rehabilitatsiya dasturlariga katta e'tibor beriladi. Jinoyatchilarning sog'lom qaytish va jamiyatga qayta integratsiya qilish maqsadida ularga psixologik yordam, kasbxunar o'rganish va ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish kabi dasturlar taklif etiladi. Jinoyatlarning oldini olish va jinoyatchilarni jamiyatga qayta integratsiya qilish uchun O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlar va rehabilitatsiya dasturlarini joriy qilish kerak. Bu usul jinoyatni sodir etgan shaxslarning jamiyatdagi o'rnini tiklashga yordam beradi va ularning qayta jinoyat qilmaslikka intiluvini oshadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida va Avstraliyada jamoat politsiyasining orqali jinoyatlar kamaygan. Politsiyat jamoat bilan hamkorlik qilib, axborot va xavfsizlik masalalaridagi fikrlarini tinglaydi, jinoyatlarning oldini olishga ko'maklashadi. Yurtimizda ham jamoat politsiyasini joriy qilish va uning jamoat bilan faol hamkorligini kuchaytirish jinoyatchilikning oldini olishda samarali natijalarga erishishga yordam beradi.

Yaponiya va Singapurda elektron tizimlar va onlayn kuzatuv xizmatlari jinoyatlarning oldini olishda va mulkka qarshi jinoyatlar bo'yicha xavfsizlikni ta'minlashda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Mamlakatimizda ham elektron tizimlar va onlayn kuzatuv xizmatlarini joriy etish, ayniqsa, yangi texnologiyalar va raqamli platformalar orqali jinoyatlarga qarshi kurashish uchun eng samarali yo'ldir.

O'zbekistonda mulkka qarshi jinoyatlarni oldini olish uchun xorijiy tajribalarni qo'llash juda muhim. Jinoyatchilikni kamaytirish uchun profilaktik faoliyati, CCTV tizimlarini kengaytirish, ijtimoiy xizmatlar va rehabilitatsiya dasturlarini joriy etish hamda jamoat bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu usullar O'zbekistonda samarali jinoyatlarga qarshi strategiyalarni ishlab chiqish va jamiyatda xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. Umumiy qism. 2016.
4. <https://lex.uz/> - O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
5. Muxtorov, M. A. (2023). Mulk huquqini himoya qilish sohasida ichki ishlar organlarining o'rni va ahamiyati. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(10), 20–24. Извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/21358>
6. G'aniev F. T. Turkiya respublikasi: tabiyati, madaniyati va an'analari //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 101-116.
7. G'aniev F. T. O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy preventiv mexanizmi //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 84-90.
8. Ganiyev F., Ganiyeva G. O'g'irlik haqida tushuncha, o'g'irlikning psixologik genezisi va mexanizmlari //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 43-47.

9. Ganiyev F., O'zoqboyev S. Voyaga etmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyat ishlarini yuritish //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 12 Part 2. – С. 131-134.
10. Ganiyev F., O'zoqboyev S. Voyaga etmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyat ishlarini yuritish //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 12 Part 2. – С. 131-134.
11. Ганиев Ф. Ўғирлик жиноятларининг профилактикаси тушунчаси ва турларига оид айрим мулоҳазалар //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 37-42.
12. Ганиев Ф. Т. Ўғирлик жиноятининг жиноят-ҳуқуқий жиҳатлари ва олдини олишга доир фикр-мулоҳазалар //Results of National Scientific Research International Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 301-313.
13. Ганиев Ф. Профилактика инспекторлари томонидан ўғриликларнинг олдини олиш фаолиятини ташкил этиш йўналишлари //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 159-162.
14. Ганиев Ф. “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойилига асосланган тизимни жорий этишда фуқоролар йиғинларини фаолиятини тизимли йўлга қўйиш //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 96-98.
15. Ганиев Ф. Ахборот хавфсизлиги ҳамда муҳофазаси таъминланганига қарамасдан содир этиладиган жиноятлар //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 129-138.

